




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI  
VA SPORT VAZIRLIGI  
МИНИСТЕРСТВО МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКИ И СПОРТА  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY  
TADQIQOTLAR INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

**“JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA  
INNOVATSION YONDASHUVLAR HAMDA  
ILMIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR,  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”  
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami**



**2023 yil 18-noyabr  
18 ноября 2023 года**

**Chirchiq – 2023**

**“JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR  
HAMDA ILMIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”  
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. – Chirchiq: 2023.**

*Mas’ul muharrir:  
p.f.d. (DSc), dotsent M.X.Mirjamolov*

**Tashkiliy qo‘mita:**

<b>M. Arziqulov</b>	Yoshlar siyosati va sport Vazirligida bo‘lim boshlig‘i
<b>F. Turdiyev</b>	Yoshlar siyosati va sport Vazirligida bo‘lim boshlig‘i
<b>M. Mirjamolov</b>	Direktor, rais
<b>L. Xolmurodov</b>	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
<b>X. Atamuratov</b>	O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
<b>N. Yusupov</b>	Ilmiy kotib
<b>Yu. Aripov</b>	Olimpiya va paralimpiya sport turlarini tahlil qilish va prognozlashtirish laboratoriyasi mudiri
<b>R. Burnashev</b>	Sportchilarni funksional va psixodianostika qilish laboratoriyasi mudiri
<b>D. Toshnazarov</b>	Sportda biomexanik tahlil qilish va harakatlarni korreksiyalash laboratoriyasi mudiri
<b>G. Xo‘jamkeldiyev</b>	Ommaviy sportni tadqiq qilish o‘quv laboratoriyasi mudiri
<b>D. Umarov</b>	O‘zDJTSU, Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasи mudiri
<b>M. Olimov</b>	O‘zDJTSU, Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati kafedrasи professori
<b>I. Soliyev</b>	O‘zDJTSU, Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati kafedrasи mudiri
<b>Sh. Yoldashev</b>	Ommaviy sportni tadqiq qilish o‘quv laboratoriyasi ilmiy hodimi
<b>D. Egamov</b>	O‘zDJTSU, Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasи o‘qituvchisi

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plamida O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasidatibbiy-biologik tadqiqotlar, zamonaviy sport mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar hamda olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlanishidagi muammo va yechimlar kabi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhokamasi o‘rin olgan.

To‘plamda nashr etilgan maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldirlar.

Mazkur to‘plam Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Uslubiy Kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

керак. Бу даврда таянч-харакат аппаратининг давом қилаётган ривожланиши – скелетнинг сукланиши катта аҳамиятга эга. Скелет суклари, айниқ-са умуртқа погонаси ҳали күчсиз ва қайишқоқ бўлади. Шунинг оқибатида ортиқча зўриқишишлар, шунингдек, ҳаракат фаоллигининг етишмаслиги қад-коматнинг бузилишларига, сколиозлар, буқриликка олиб келади. Шунга кўра парта, стол олдида ўтирганда тўғри ҳолатни танлаш, китобларни портфелда эмас, балки сафархалта ва рюззакларда кўтариш, соф ҳаводаги фаол ўйинларга кўпроқ аҳамият бериш зарур. 7 ёшга келиб, панжаларнинг шаклланиши, қўл бўғимлари ва бойлам аппаратининг мустаҳкамланиши амалда тугалланади. Ҳаракатларнинг мувофиқлашуви бирмунча яхшиланади. Мушакларнинг таранглилиги ва кучи ошади. Тана оғирлигининг қўпайиши сабабли нормал жисмоний ривожланишининг бузилиши гипокинезия (камҳаракатлилик) оқибати бўлиши мумкин. Жисмоний ҳаракатларда бола тез толикиб қолади, моддалар алмашинуви ва юрак фаолиятининг бошқарилиши издан чиқади, касалликларга чидамлилиги пасаяди.

Турли хил жисмоний машқларга (жисмоний тарбия дарслари, бадантарбия, спорт машғулотлари, уйда жисмоний меҳнат) қиз болалар ҳафта-сига 5-12 соат, ўғил болалар кам деганда 2-3 соат ажратишилари керак.

Мактаб ўқувчилар ҳар куни камида 2-3 соатни соф ҳавода ўтказишлари керак. Кучли диққат билан ўтган ўқишидан сўнг мактаб ўқувчиси тўлақонли ухлаши зарур. Уйқунинг давомлилиги ёшга боғлиқ ва 6-10 ёшдаги мактаб ўқувчилари учун суткасига камида 10 соат, 11-14 ёшда камида 9 соат, бундан каттароқ болалар учун камида 8 соат бўлиши керак. Ухлашдан олдин 30-40 дақиқа мобайнида соф ҳавода сайр қилиш жуда фойдали ҳисобланади. Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаев А, Хонкелдиев Ш. “Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси” учебное пособие, Т. 2005 й.
2. Саламов Р. “Спорт машғулотининг назарий асослари”, ўқув қўлланма, Т. 2005 й
- 4.Sharipova D.D. Formirovanie zdorovogo obraza jizni.Uchebnoe posobie. Т.: 2005.

## **ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ БОЛАЛАР СОҒЛИГИНИ МУСТАҲКАМЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ**

*Алимбоева Розия Давуловна  
Алишер Навоий номидаги ТДЎТАУ  
“Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси доцент,  
Тошкент*

## **ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА ВАЖНОСТЬ В УКРЕПЛЕНИИ ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ**

*Алимбоева Розия Давуловна, доцент., кафедры  
социально-гуманитарных наук, Ташкентский  
государственный университет узбекского  
языка и литературы им. Алишера Навои, Ташкент*

**Аннотация:** давлатимиз тараққиёт йўлидан бормоқда авлодларимиз давомчилиари ёшларнинг саломатлиги ва уларнинг соҳаларидағи таълим–тарбия билан бир қаторда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш энг муҳим тараққиёт воситалардан бири, саломатликнинг мустаҳкамлиги натижаларга эришишнинг ажralmas қисми эканлиги ҳақида маълумотлар берилган.

**Аннотация:** наша страна находится на пути развития, здоровье потомков наших поколений наряду с образованием и профессиональной подготовкой в своих областях, физическое

воспитание и спорт являются одним из важнейших средств развития, приводятся сведения о том, что сила здоровья неотъемлемая часть достижения результата.

**Калит сўзлар:** юриш, югуриш, сакраш, отиш, тирмашиб чиқиш, ошиб ўтиш, сафда юришга таёргарлик, қомат, мувозанат, машқлар, ҳаракат, аниқ, ритм, суръат сезгиси, жамоа

**Ключевые слова:** ходьба, бег, прыжки, метание, карабканье, пропуск, построение, поза, баланс, упражнение, движение, точность, ритм, чувство темпа, команда

Ватанимиз тараққиёт йўлида экан авлодларимиз давомчилари ёшларнинг саломатлиги ва уларнинг соҳаларидаги таълим –тарбия билан бир қаторда Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғуланиш энг муҳим тараққиёт воситалардан биридир. Саломатликнинг мустаҳкамлиги натижаларга эришишнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Жисмоний тарбия ва спорт бола ва ўсмирга жуда кўп фазилатлар бахш этади, жисмонан бақувват қиласи, ҳаракат кўникмаларини ҳамда жисмоний хусусиятларини такомиллаштиради, организмнинг заҳира кучларини, иш қобилиятини, кўпгина касалликларга қаршилик қилиш кучини оширади. Бироқ чидамлилик ва умумий соғлик ҳолати ҳаммада бир хил эмас, шунинг учун юклама бир бўлиши мумкин эмас. Биринчи Президентимизнинг (И.Каримов) Соғлом авлод Ўзбекистон тараққиёти пойдевори, ёшлар тарбияси, баркамол авлод деганда биз Ўзбекистоннинг буюк келажагини назарда тутамиз.

Болаларни жисмоний тарбиялаш вазифалари қўйидагилардан иборат:

1. Болаларнинг соғлигини мустаҳкамлаш, чиниқтириш, уларнинг тўғри жисмоний ривожига ва юксак ақлий иш қобилиятини сақлаб туришга қўмаклашиш.
2. Жисмоний хусусиятларни тарбиялаш (чаққонлик, кучлилик, тезлик, бардошлилик, қайишқоқлик) ва ҳаётий зарур ҳаракат кўникмаларини (юриш, югуриш, сакраш, отиш, тирмашиб чиқиш, ошиб ўтиш, сафда юришга таёргарлик, қоматини ростлайдиган, мувозанатни сақлашга доир машқлар, ҳаракатлар аниқлиги ва мувофиқлиги, ритм ва суръат сезгиси, жамоа бўлиб ҳаракатлар қилиш кўникмалари) ўкувчиларнинг меъёрий талабларни бажаришга таёrlанишини шакллантириш.
3. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги маҳсус билимлардан хабардор қилиш ва ташкилий кўникмаларни, шунингдек шахсий ва жамоат гигиенаси кўникмаларини ва маданий ҳулқатвор одатларини сингдириш.

Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғуланиш жараёнида ўкувчи- ларда ўзига ва жамиятга зарур бўлган ирова кўникмалари: мақсадга интилиш, ташаббускорлик, довюраклик, матонатлилик, интизомлилик, чидамлилик ва саросимага тушмаслик, шунингдек биродарлик, дўстлик ва жамоа бўлиб ҳаракат қилиш сезгилари тарбияланади.

Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари олдида турган вазифаларни амалга оширишда турли синфлардаги ўкувчиларнинг соғлик ҳолати, ёши, жинси, жисмоний ривожланганлиги ва жисмоний тайёргарлиги хи- собга олинади.

Болаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари уларнинг соғлик ҳолатларига боғлиқ. Боланинг жисмоний тайёргарлигига баҳо бериш учун биринчи навбатда унинг функционал ривожланганлиги (юрак қисқариш- лари сони, артериал қон босими, нафас сони, ўпканинг ҳаётий сифими, панжалар кучи), ёш стандартлари кўрсаткичларига таққосланиб жисмоний ривожланганлигига баҳо берилади.

Болалар учун жисмоний юкламаларни ёш хусусиятларидан келиб чиқиб тахсиланиши **Жисмоний юкламаларнинг турлари**. Жисмоний тарбия машғулотларидан тегишли соғломлаштирувчи жисмоний юкламаларни бажариш зарур. Жисмоний тарбия ва спортда юклама деганда жисмоний машқларнинг шуғулланувчилар организмига таъсири тушунилади. Жисмоний юкламани бажаришда учта асосий мақсад фарқ қилинади. Бу – спортда натижага эришиш, соғлиқни мустаҳкамлаш, бирор бир фаолиятга тайёргарлик. Шу мақсадларга биноан спортта оид соғломлаштирувчи ва амалий юкламани фарқ қилинади. Улар таркиби ва катта-кичик- лигига кўра бир-биридан жиддий фарқ қиласи (катта спорт юкламалари билан соғломлаштирувчи жисмоний тарбия ўртасида кейинчалик бўлиниш оқими қайд қилинади). Юклама қиймати унинг интенсивлиги ва ҳажми параметрлари билан тавсифланади. Юкламаларни тўғри тақсимлашнинг асосий мезонлари бўлиб юрак қисқаришлари сони,

машқларни максимал тақрорлашлар миқдори бўйича қаршиликлар қиймати, минутлик нафас ҳажми ҳисобланади. Эффектив жисмоний тарбияда энг муҳими тиклайдиган, тайёрлаб рағбатлантирадиган, фаоллаштирадиган ва ўргатадиган юкламаларни меъёrlaash ҳисобланади. Жисмоний тарбия ва спорт тикловчи юкламалари шуғулланувчининг соғлигини мустаҳкамлаш, чарчашини пасайтириш ва иш қобилиятини ошириш учун қўлланилади. Тикловчи юкламалар жисмоний тарбиянинг ҳар хил шаклларида қўлланилади – бу сайд қилиш, туристлик саёҳатлар, жисмоний тарбия дақиқалари, серҳаракат ўйинлар, қайиқда сузиш, велосипед ҳайдаш каби тикловчи юкламаларни табиатнинг физик омиллари (сув, ҳаво, қуёш) билан қўшиб олиб борган маъқул. Тайёрлаб рағбатлантирадиган юкламалар организмни бирмунча юксак функционал фаолиятга ёки ўқув ёхуд профессионал фаолиятга тайёрлаш учун қўлланилади.

Қатор ҳолларда юкламалар ҳал қиласидиган вазифаларга мос келади. Масалан, физкультура минутларида бундан олдинги иш туфайли келиб чиқсан чарчоқ камаяди (тиковчи самара) ва кейинги фаолият рағбатлантирилади (рағбатлантирувчи самара). Рағбатлантирувчи тайёрлов юкламалари эрталабки бадантарбияда, дарслардан олдинги гимнастикада, диққатни аниқ жалб этувчи ҳаракатларни ақлий меҳнатни талаб қиласидиган маҳсус профессионал фаолият олдидан қўлланилади. Тиклайдиган юкламалар таъсирининг энг мос кўрсаткичи бу иш қобилиятининг ошиши, кафиятнинг яхшиланиши, чарчоқнинг камайиши ёки йўқолишидир. Тиклайдиган юкламалар мунтазам – кун, ҳафта, йил мобайнида қўлланилиши керак. Фаоллаштирувчи юкламалар мушакларда алмашинув жараёнларини етарли даражасини таъминлаб, организмнинг барча фаолиятларини (қон айланиши, нафас, асаб-руҳий, ҳазм қилиш) ва охири оқибатда трофик (қон таъминоти) фаолиятни кучайтиради. Шунингдек, ҳамма юкламалар (ривожлантирувчи ва қўллаб-куватловчи, тикловчи, тайёрлаб-рағбатлантирувчи) фаоллаштирувчи ҳисобланади. Бироқ уларнинг ҳажми ҳамма вақт ҳам зарур ҳаракат фаолигини таъминлай олмайди.

Фаоллаштирувчи юкламалар чарчоқ бўлмагандага ҳам (дам олишда) бажарилиши лозим. Мактаб ўқувчисининг кундалик ҳаракат фаоллиги нормасини 15-30 минг қадам деб ҳисоблаш расм бўлган. Ёшга ва жинсга оид нормалар жадвалдага асосан ташкиллаштирилса маҳсадга мувофиқ бўлади албатта.

*Шуғулланувчи болаларнинг ёш ҳусусиятларидан келиб чиқиб меъёrlar жадвалини берамиз.  
кунлик ҳаракат фаолигининг*

#### *гигиеник меъёrlari*

Ёш гурухлари, ёш	Локомациялар (қадамлар сони), минг	Энергия сарфи қиймати, суткасига/ ккал	Давомлилиги, соат
8-10 (иккала жинс)	15-20	2500-3000	3,0-3,6
11-14 (иккала жинс)	20-25	3000-4000	3,6-4,8
15-17 йигитлар	25-30	3500-4300	4,8-5,8
15-17 қизлар	25-30	3000-4000	3,6-4,8

Ўргатувчи юкламалар меъёри шуғулланувчининг индивидуал қобилияларига боғлиқ. Ўргатишнинг асосий ҳажми ривожлантирадиган, тиклайдиган, тайёрлаб-рағбатлантирадиган ва фаоллаштирадиган юкламаларни бажариш жараёнида ўтказилади.

Жисмоний тарбия дарсларида, уйга берилган топширикларда бажариладиган маҳсус ўргатадиган юклама ўрнатиш самарадорлиги мезони бўйича ва шуғулланувчи боланинг тегишли кўникмаларни эгаллаганидан кейин белгиланади.

*Куч сифатининг меъёrlari.* Куч даражаси организмнинг ҳаракат функциясидан ташқари, яна учта ҳаётий муҳим функцияси – корсет (нормал қомат ва умуртқа поғонаси ҳамда орқа мия

фаолиятини кувватлаб туриш), алмашинув ва насос фаолиятини (“мушак насоси”) таъминлаб турадиган мушак тизимининг муайян морфофункционал ҳолатини тавсифлайди. Кучни меъёрлари бўйича кўрсаткичлар жадвалда келтирилган.

### Куч меъёрлари

Назорат машклари	Меъёрлар					
	Ёш (йил), жинс					
	7-11		12-14		15-17	
	Ўғил	Қиз	Ўғил	Қиз	Ўғил	Қиз
Пастки тўсиндан ётиш ҳолатида кўтарилиш	-	7-10	-	12-15	-	12-15
Юқори тўсиндан кўтарилиш	6-8	-	8-10	-	8-10	-
Кўлга тиралиб туриб кўтарилиш	7-10	7-10	12-15	10-12	18-20	10-12
Осилиб ёки тиралиб туриш	2-4	2-4	4-6	4-6	8-10	4-6
“Қалдирғоч” ҳолатидаги машқ	2-4	2-4	2-6	2-6	8-10	6-8
Иккинчи оёқка тиралиб, бир оёқда туриб-ўтириш (чап+ўнг)	6-10	6-10	15-20	10-12	18-20	12-15

### Жисмоний тарбия дарсларида юкламаларнинг тақсимланиши

Жисмоний тарбия дарси жисмоний тарбиянинг асосий шакли ҳисоб-ланади. Жисмоний тарбия дарсларини тўғри ташкил қилиш ва уларни ўт-казиш услуби кўп жиҳатдан жисмоний тарбия вазифаларининг муваффа-қиятли бажарилишига боғлиқ. Ҳар бир жисмоний тарбия дарсининг тузилиши ва мазмуни ўқувчиларнинг ёшини, соғлик ҳолатини ва жисмоний тайёрланганигини ҳисобга оладиган жисмоний тарбия бўйича ўқув дастури билан белгиланади. Машғулотларгача гимнастика – соғломлаштирувчи тадбирлардан бири ҳисобланади. Гимнастика машғулотлари биринчи галда марказий асаб тизимиға яхши таъсир кўрсатади: болаларнинг кайфияти кўтарилади, улар бирмунча фаол, тетик ва интизомли бўлиб қоладилар, бундан ташқари мунтазам гимнастика мушак тизимини мустаҳкам қиласди, моддалар алмашинувини оширади ва ички аъзолар, айниқса, юрак ва ўпканинг фаолиятини яхшилайди. Гимнастика ҳар куни, дарслардан 7-10 дақиқа олдин ўтказилиши керак. Об-ҳаво яхши бўлгандан уни албатта очиқ ҳавода (масалан, спорт майдончасида), ҳаво айниган пайтларда ва совук тушганда эса мажлислар зали, вестибюл, йўлак ёки яхши шамоллатиб туриладиган ва нам усулда артиб тозаланадиган хоналарда ўтказилиши керак. Дарсдан олдинги гимнастикани касалдан тузалган ва шикаст олганлардан ташқари, асосий ва тайёрлов гурухларининг ҳамма ўқувчилари қилишлари лозим. Махсус тиббий гуруҳдаги болаларнинг ҳам кўпчилиги кириш гимнастикаси билан шуғулланишлари мумкин, бунинг учун улар кўшимча тиббий қўриқдан ўтишлари ва врачдан рухсат олишлари керак. Куни узайтирилган гурухлардаги жисмоний машқлар болаларнинг ҳаракат фаоллиги ва қоблият даражасини оширади. Дам олиш ва сайд қилишга ажратилган вақтда жисмоний машқлар ва серҳаракат ўйинлар ёрдамида нерв тизимининг максадгага йўналтирилган педагогик таъсир вақтининг кўпайиши билан алоқадор чарчоғини қолдириш, шунингдек ҳаракат қобилиятларини ривожлантириш, болаларнинг соғлигини мустаҳкамлаш, ақлий ва жисмоний иш қоблиягини ошириш мумкин. Жисмоний машқлар ва сехараракат ўйинлар соғ ҳавода ўтказилганда уларнинг самарадорлиги юқори бўлади. Жамиятдаги барча инсонлар ҳамма яхши нарсаларни болаларга инъом этишга ҳаракат қиласди. Ҳозирда болалар бутун ер юзи аҳолисининг тахминан учдан

бир қисмини ташкил этади. Соғлом болалар – мамлакат келажагидир. Шунинг учун ҳам мустақиллик эълон қилинган дастлабки кунлардан бошлаб республикамиз хукумати ўсиб келаётган ёш авлоднинг саломатлик даражаси тўғрисида ғамхўрлик қилиб келмоқда. Республикаизда “Соғлом авлод”, “Она ва бола”, “Она ва бола скрининг” Давлат дастурлари ҳаётга тадбиқ этиб келинганди, уларда она ва фарзанд саломатлигини муҳофаза қилишдаги устувор йўна-лишлар белгилаб берилган. Боланинг ҳаётида ҳаракат фаол биологик кучайтирувчи, мослашув механизмларини такомиллаштирувчи ҳамда жисмоний ва ақлий ривожланиш омили ҳисобланади. Ўсаётган организм ҳаракатларга биологик эҳтиёж сезади. Организмнинг жадал ўсиш ва ривожланиш даврларида – болалик ва ўсмирилик ёшида ҳаракатларнинг аҳамияти бекиёс. Бугунги кунда мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни тарғиб қилиш барча соҳалардаги вазирликлар, бошқармалар, соғлиқни сақлаш, таълим, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассислар зиммасига юклатилган. Бу ўз навбатида катта нитижаларни бермоқда. Болаларнинг илмий жиҳатдан асосланган ва тўғри ташкил қилинган жисмоний тарбияси ўсиб келаётган ёш организмга яхши таъсир кўрсатади: у ҳар томонлама жисмоний ва руҳий ривожланишга имкон беради, ҳаракат имкониятларини кенгайтиради, ҳимоя мослашув реакцияларини оширади ва организмнинг ташки омилларнинг нокулай таъсирларига чидамлилигини кучайтиради, болалар ва ўсмириларга кувноқлик ҳамда тетиклак бағишлийди, ватанпарварлик ва Ватангана мұхаббат туйғуларини тарбиялади. Саломатликни сақлаш ва яхшилаш туғилгандан бошлаб барчанинг кундалик машаққатли юмуши ҳисобланади. Маълумотларига кўра болаларни жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланганлар сони кундан-кунга кўпайб спортда эришяпган ютуқлари ортиб бормоқда.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Koshbaxtiev I.A. Kerimov F.A. «Валеология асослари», Toshkent, «UzDJTI nashriyot-matbaa bo’limi», 2005г.
- 2.Yunusov T.T., Yunusova Y.M. “Alpomish” va “Barchinoy” mahsus testlari bo‘yicha uslubiy qo’llanma.T.: 2004.
- 3.Юсупова Ю.М. Теоретические основы физической культуры и спорта. Т.: 2005.
- 4.Sharipova D.D. Formirovanie zdorovogo obraza jizni.Uchebnoe posobie. Т.: 2005.

### **UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QUVCHILARGA TABAQALI YONDASHGAN HOLDA JISMONIY TARBIYA FANINI O’RGATISHDA UZLUKSIZLIKNI TA’MINLASH YO’LLARI**

*Aripov Y.Y.*

*Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti  
Olimpiya va paralimpiya sport turlarini tahlil  
qilish va prognozlashtirish laboratoriysi mudiri, p.f.n.dotsent.  
Chirchiq, O’zbekiston*

**Kalitli so‘z:** Uzluksiz ta’lim tizimi, jismoniy tarbiya darslar, tabaqalashtirish, tabaqali yondashish, jismoniy tayyorgarlik darajasi, jismoniy rivojlanish.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimining asosi yaratildi.

Uzluksiz ta’lim-chuqur, har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli-tuman shakl, usul, vosita, uslub va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uning turli komponentlarining o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, muayyan usul va uslublarning ta’lim sharoitiga oqilona sharoitiga tadbiq etilishi uzluksiz ta’lim sifatini ta’minlaydi.

<b>Яковлева Е. В., Скнарина Е. Ю., Курах Ю. А., Райф Л. С.</b> ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ САМОРЕГУЛЯЦИЯ КАК ЭЛЕМЕНТ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ	<b>75</b>
<b><i>II-SHO'BA. JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNI TARG'IB QILISH HAMDA RIVOJLANTIRISH</i></b>	
<b>Алимбоева Р.</b> ҲОЗИРГИ КУНДА МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАР ҲАЁТИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИНинг АҲАМИЯТИ	<b>79</b>
<b>Алимбоева Р.</b> ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ БОЛАЛАР СОҒЛИГИНИ МУСТАҲКАМЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ	<b>82</b>
<b>Aripov Y.</b> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARGA TABAQALI YONDASHGAN HOLDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'RGATISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	<b>86</b>
<b>Aripov Y, Orinov N.</b> MAKTAB O'QUVCHILARINING KUN TARTIBIDA OLIB BORILADIGAN SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY VA USLUBIY SHAKLLARI	<b>88</b>
<b>Beknazarov P.</b> O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA JALB QILISH VA BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTRISH	<b>92</b>
<b>Bobomurodov A.</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR CHAQQONLIK SIFATI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (5-YOSH MISOLIDA)	<b>96</b>
<b>Bobomurodov A.</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHAQQONLIK SIFATINING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI	<b>100</b>
<b>Djumanov A.</b> OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TIZIMLI TASHKIL ETISH	<b>105</b>
<b>Ковригин В.</b> ЛЮБИТЕЛЬСКАЯ БАСКЕТБОЛЬНАЯ ЛИГА КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ЛЮДЕЙ К МАССОВОМУ СПОРТУ	<b>107</b>
<b>Madaminov B.</b> YANGILANAYOTGAN O'ZBEKİSTONDA SPORT VA JISMONIY MADANIYATNING O'RNI BORASIDA AYRIM FIKRLAR	<b>111</b>
<b>Mamadova F.</b> BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI	<b>113</b>
<b>Mamadova F.</b> BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	<b>116</b>
<b>Qalandarova Sh.</b> MILLIY VA HARAKATLI O'YINLAR ORQALI BELBOG'LI KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI QIZLARNING TEXNIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI	<b>118</b>
<b>Qalandarova Sh.</b> BELBOG'LI KURASHCHILARNI SAMARALI TAYYORLASH	<b>120</b>
<b>Smurygina L, Radjabov J.</b> MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY FAZILATLARINI TARBIYALASH METODIKASINING XUSUSIYATLARI	<b>123</b>
<b>Шипилова К, Поздеева А, Евсеева О.</b> ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКИ КАК ВИДА СПОРТА ДЛЯ КОРРЕКЦИИ НАРУШЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЦ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ	<b>128</b>
<b>Сидельников А, Сидельникова А.</b> ИССЛЕДОВАНИЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ДАЛЬНИХ, СРЕДНИХ, БЛИЖНИХ БРОСКОВ МЯЧА У БАСКЕТБОЛИСТОВ 12–13-ЛЕТНЕГО ВОЗРАСТА	<b>131</b>
<b>To'xtasinov B.</b> JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA TA'LIMNI TASHKIL ETISH USLULLARI	<b>135</b>
<b>Юлдашева О.</b> ШАХС ТАРБИЯСИДА ОЛИМПИЗМ ФОЯЛАРИНИНГ ЎРНИ	<b>137</b>
<b><i>III-SHO'BA. MALAKALI SPORTCHILARNI MUSOBAQA JARAYONIGA TAYYORLASHDA ILMIY TADQIQOTLARNING O'RNI</i></b>	
<b>Abdurazaqov X, Ahmedov J.</b> SAMBO SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHI SPORTCHI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNING QIYOSIY TAHLILI	<b>141</b>